

O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

Qadrlido'stlar!

Siz, azizlarni, hayotini dunyodagi eng ulug' va olijanob ishga — navqiron avlod ta'lim-tarbiyasiga bag'ishlagan muhtaram ustoz va murabbiylar, sohaning barcha jonkuyar xodimlarini umumxalq bayrami — O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan samimiy muborakkob etaman.

Mana shunday quvonchli kunda siz, mehribon ustozlarga el-yurtimizning yuksak hurmat-ehtiromini yana bir bor izhor etib, barchangizga Yangi O'zbekiston kelajagini yaratish yo'lidagi mashaqqatli va sharaflı mehnatingiz uchun chin qalbdan tashakkur bildiraman.

Hurmatli ustoz va murabbiylar!

Yaqinda sizlar bilan bo'lib o'tgan ochiq, aytilish mumkinki, tarixiy muloqotimizda ta'lim-tarbiya tizimidagi ishlarimizni chuqur tahlil qilib, ularni yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha aniq maqsad va rejalarni belgilab oldik.

Kuni kecha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida ta'lim sohasidagi islohotlarimiz natijalari jahon hamjamiyatida katta e'tibor va qiziqish uyg'otdi. Bu borada biz erishgan yutuqlar xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yangi tashabbuslarni ilgari surish uchun asos bo'ldi.

Xususan, keyingi sakkiz yilda yurtimizda ta'lim va ilm-fan uchun xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so'mni tashkil etgani, yuzlab yangi bog'chalar, maktab, texnikum va oliygohlar qurilgani, ta'lim va ilm dargohlarini zamon talablari asosida jihozlash, ustoz va murabbiylarning mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan dasturlarimiz alohida e'tirof etildi.

Bu haqda gapirganda, mamlakatimizda qisqa muddatda bog'chalar sonini 5200 dan 38 mingtaga, qamrov darajasini 27 foizdan 78 foizga oshirganimiz, tarbiyachilar maoshi maktab o'qituvchilari oyligiga tenglashtirilgani, ushbu muassasalardagi rahbar va pedagoglar maoshi qariyb 2 barobar oshirilganini ta'kidlash lozim.

Kelusi yildan Qoraqalpog'iston va barcha viloyatlarda Prezident maktablari kabi "Yangi avlod" bog'chalari tashkil etilib, ularda tarbiyachilar ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganadi.

Farzandlarimizga bilim va tarbiya berishning eng muhim bosqichi — maktab ta'limini rivojlantirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda 500 ga yaqin yangi maktablar barpo etilib, mavjudlari kengaytirilgani hisobidan 1 million o'quvchi o'rni yaratildi. Xususi maktablarga yo'l ochilishi tufayli ota-

onalar va o'quvchilar uchun tanlash imkoniyati paydo bo'ldi. Bugungi kunda 200 mingdan ziyod o'g'il-qizlarimiz ana shunday maktablarda o'qimoqda.

Yangi o'quv yilidan 12 yillik maktab ta'limi hamda 9- va 11-sinf o'quvchilari uchun yagona davlat imtihonlari joriy qilinib, ularning natijalari bo'yicha bitiruvchilar bevosita texnikum va oliygohlarga kira oladigan tartib yo'lga qo'yiladi.

Hammamizga ayonki, kelajak — zamonaviy bilim bilan qurollangan kasb-hunar egalarinikidir. Biz bu haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim. Shu bois, yoshlarimizni davr bilan hamnafas bo'lib, har qanday raqobatga bardosh bera oladigan yetuk mutaxassislar etib tarbiyalashimiz kerak.

Shu maqsadda tashkil etilayotgan Kasbiy ta'lim agentligidan umidimiz katta. Ushbu agentlik kasb ta'limi sohasiga, mavjud texnikumlarga xalqaro standartlar asosida yangi hayot nafasini olib kirishi zarur.

Bir yil ichida 100 ta texnikumda Germaniya, Buyuk Britaniya, Shveysariya, Xitoy, Koreya Respublikasi kabi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib, ularning ilg'or o'quv dasturlari joriy etiladi. Jumladan, Angliyaning "Pirson" kompaniyasi bilan hududlardagi 14 ta texnikumda "BITEK" xalqaro dasturi orqali yoshlarni turizm, axborot texnologiyalari, tibbiyot, qurilish, logistika, elektrotexnika, energetika, mashinasozlik, biotexnologiya, kreativ iqtisodiyot kabi yo'nalishlarda talab yuqori bo'lgan kasblarni egallaydi.

Mamlakatimizda dual ta'lim bilan qamrov 5 barobar oshiriladi. Ayni paytda yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, chet ellik investor va hamkorlar bilan erkin muloqot qilish uchun texnikumlardagi xorijiy til soatlari to'rt karra ko'paytiriladi.

Umuman, kelusi yildan yangi, raqamli ochiq platforma ishga tushirilib, unda texnikum bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalari haqidagi ma'lumotlar mahalliy va xorijiy ish beruvchilar uchun e'lon qilinadi.

Shu bilan birga, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida maktab maslahatchisi lavozimi joriy etilib, ular 7-sinf dan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bilan shug'ullanadi.

Barchangizga ma'lumki, biz keyingi yillarda oliy ta'lim masalasiga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Amalga oshirilgan islohotlarimiz natijasida o'tgan sakkiz yil ichida oliygohlarimiz soni 77 tadan 202 taga, talabalar soni esa 250 mingdan 1,5 millionga yetdi. Yoshlar uchun

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

O‘ZBEKISTON



YANGI O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY OHANRABOSI

DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY, DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISH YO‘LIDAGI ISHONCH VA BARQARORLIK STRATEGIYASI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning AQSHga bu galgi tashrifi ham muhim uchrashuvlar, har tomonlama foydali kelishuvlar va xalqaro ahamiyatli tashabbuslarga boy bo'ldi.

Tabiiyki, mamlakatimiz yetakchisining tig'iz kun tartibiga qaramay, kuchli shijoati, doim olg'a intilishi o'zgacha hayajon, quvonch va faxr bilan keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. "Qoyil, buncha kuch, shijoatning, xalq va vatan ishlaridan charchamaslikning siri nimada?" degan savollar ko'p aylandi ijtimoiy tarmoqlarda.

Bu savollarga javob topish haqidagi o'ylar mamlakat taraqqiyoti yo'lidagi islohotlar, xususan, AQSH safarini birma-bir tahlil etishga undaydi kishini. Safarning umumiy taassurotdan ko'rindiki, AQSH rasmiylari,

ishbilarmon doira vakillarining davlatimiz rahbari bilan yaqinroq munosabat o'rnatishga ishtiyoqi sezilib turdi. Fikrimizni imzolangan kelishuv hujjatlar, bo'lib o'tgan uchrashuvlar ko'lam ham isbotlaydi. Masalan,

davlatimiz rahbari bir kunning o'zida AQSHning 20 dan ortiq yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuv va muzokaralar o'tkazdi.

Davomi 3-betda



TARAQQIYOT POYDEVORI — BILIM, uning asosi esa sifatli ta'lim



Hakim Yo'ldoshev olgan surat.

Shu kunlarda suhbatimiz o'zani ta'lim, tarbiya, ustozlar haqida bo'lib turibdi. Buning o'ziga xos sabablari bor. Avvalo, yurtimizda 1-oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida keng nishonlansa, ikkinchi omili sentyabr oyida Prezidentimiz aynan ushbu yo'nalishda bir necha tadbir va yig'ilishlar o'tkazdiki, ularda ko'tarilgan masalalar mamlakatimiz kelajagi, pedagog va o'quvchilar taqdiri bilan bevosita bog'liq. Bu haqda har qancha gapirsak, tahlil qilsak kam.

Jadid bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir", degan gaplari takror bo'lsa-da, xayoldan o'taveradi. Chunki ta'lim va tarbiya kechiktirib bo'lmaydigan, eskirmaydigan mavzu bo'lib, bugun ham aslo ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Aksincha, ta'lim-tarbiya doimiy e'tibordagi masala bo'lib qolmoqda. Ya'ni aytilish kerakki, yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan har qanday loyiha, tashabbus va g'oya kelajak uchun qo'yilgan mustahkam poydevor, katta qadamdir.

Yangi O'zbekistonning asosi tarbiya, ta'lim va ilm. Biz tanlagan yo'l shu. O'rtga qaytmas tus olgan islohotlarimizdan muddao shundan iborat. Nazarimizda, bu eng to'g'ri va oqilona ish tutumi. Binobarin, ilmsiz hech bir natijaga erishib bo'lmaydi.

Davomi 4-betda

QORAQALPOG‘ISTONNING QIYOFASI TUBDAN O‘ZGARDI

Orolbo'yi hududiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surib, keng ko'lamli bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari bajarilmoqda. Bu o'zgarishlar natijasida bugun nafaqat tuman markazlari, shahar va qishloqlar, hatto eng chekka ovullar qiyofasi ham yangilanib, jadal sur'atda rivojlanmoqda.

Orolbo'yida ekologik vaziyatni yumshatish, aholi farovonligini ta'minlash borasida qabul qilinayotgan alohida farmon va qarorlar ezgu ishlarga mustahkam zamin yaratmoqda. Masalan, Prezidentimizning joriy yil 14-avgustdagi "Qoraqalpog'iston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, 2025-2026-yillarda Qoraqalpog'istonni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun maxsus dastur tasdiqlandi.

Davomi 2-betda



QORAQALPOG‘ISTONNING QIYOFASI TUBDAN O‘ZGARDI



Murat ATAMURATOV,
Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Jo‘qorg‘i Kengisi qo‘mita raisi

Boshlanishi 1-betda

Unga muvofiq, logistika xablarini tashkil etish belgilangan. Shu bois, hududni Qozog‘istonning Qizilo‘rda viloyati bilan bog‘laydigan Qizilo‘rda — Taxtako‘pir avtomobil yo‘lini qurish borasida hukumatlararo qo‘shma komissiya doirasida muzokaralar o‘tkazildi. Xuddi shunday masalada Turkmaniston tomoni bilan ham kelishuvlar o‘tkazishga hozirlik ko‘rilmog‘da. Bunda Qoraqalpog‘istonni Turkmanistonning Toshovuz viloyati bilan bog‘laydigan Xo‘jayli — Toshovuz chegara postini ochish masalasi ko‘riladi. Muzokaralar natijasiga ko‘ra aniq asoslangan takliflar ishlab chiqiladi.

Shu kabi xayrli ishlar so‘nggi yillarda qoraqalpog‘istonliklar hayotida katta burilish yasadi. Jumladan, aholini ko‘p yillardan buyon qiyinab kelayotgan bog‘cha, maktab, tibbiyot muassasalari, yo‘l infrastukturasi, suv va gaz ta‘minoti, maishiy xizmat bo‘yicha muammolar hal etildi. Masalan, 2016-yilda Qoraqalpog‘istonda bor-yo‘g‘i 6 ta oliy ta‘lim muassasasi bor edi. Joriy yilga kelib ular soni 11 taga yetdi. Yoshlarimizning oliy o‘quv

“ Bu yilning dastlabki olti oyida salkam shu ko‘rsatkich qayd etilib, 24,8 million dollarlik turizm xizmati ko‘rsatilgan. E‘tiborlisi, faqat Mo‘ynoq va Orol dengiziga keluvchi sayyohlar soni o‘tgan yili 70 mingni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilning olti oyida 100 mingga yetdi.

yurtlariga kirish ko‘rsatkichi 2016-yildagi 9 foizdan 45 foizga o‘tdi. Shuningdek, joriy yilda jami 340 o‘quvchi dual ta‘lim bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. Ya‘ni ushbu yo‘nalishda tahsil olayotgan yigit-qizlar korxona va tashkilotlarda mehnat qilish bilan birga nazariy bilimlarini ishda qo‘llab, amaliy ko‘nikmalarni egallash imkoniyati yaratildi.

Prezidentimizning qoraqalpog‘istonlik yoshlarga g‘amxo‘rligi natijasida o‘tgan 3 yilda 20 ming yigit-qiz qo‘shimcha kvota asosida oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi. Bu ularning hayotidagi eng quvonchli kunlari bo‘ldi. Talabalar zamonaviy binolarda ta‘lim olishi uchun o‘tgan yili Nukus davlat pedagogika institutida 76 milliard so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Yangi bino foydalanishga topshirildi. Joriy yilda Nukus davlat texnika universiteti tashkil etildi. Shuningdek, “Test markazi” uchun qiymati 18 milliard so‘mlik yangi bino qurildi. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 1200 nafar abituriyent test sinovini topshirish imkoniga ega.

Mazkur qarorda aholini kasb-hunarga o‘rgatish, yoshlarning ta‘lim olish imkoniyatini kengaytirishga ham alohida e‘tibor berilgan. Endi har yili umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarini

Islohotlar amalda



tamomlagan yoshlarning xorijda o‘qishi ta‘minlanadi. Chet elda o‘qitish kvotasi talabga qarab 50 o‘rin bo‘lishi mumkin. Ushbu talabalar o‘qishni tamomlagach, kamida to‘rt yil Qoraqalpog‘istonda ishlab beradi. Bu malakali kadrlarga ehtiyojni qoplash, hududni yanada rivojlantirishda qo‘l keladi.

“ Talabalar zamonaviy binolarda ta‘lim olishi uchun o‘tgan yili Nukus davlat pedagogika institutida 76 milliard so‘mlik qurilish ishlari bajarildi. Yangi bino foydalanishga topshirildi. Joriy yilda Nukus davlat texnika universiteti tashkil etildi. Shuningdek, “Test markazi” uchun qiymati 18 milliard so‘mlik yangi bino qurildi. Bu yerda bir vaqtning o‘zida 1200 nafar abituriyent test sinovini topshirish imkoniga ega.

yashaydigan yoshlarga 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab kelgusi 3 o‘quv yili davomida qo‘shimcha 500 ta maqsadli kvota ajratiladigan bo‘ldi. Shuningdek, respublikada faoliyat yurituvchi nodavlat va xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlari hamda filiallarida davlat granti asosida o‘qitish uchun har yili qo‘shimcha 200 ta maqsadli kvota ajratiladi. Maqsadli qabul kvotalari bo‘yicha OTMlarni tamomlagan yoshlar ushbu hududda 3 yil ishlab berish majburiyatini oladi. Shu asnoda mutaxassislarga talab qanoatlantirib boriladi.

Ayni paytda mamlakatimizda turizm rivojiga alohida e‘tibor berilyapti. Buning natijasi ham aniq raqamlarda ko‘rinyapti. Masalan, 2024-yilda Qoraqalpog‘istonga 200 mingdan ziyod xorijlik sayyoh kelgan. Joriy yilning birinchi yarmida bu ko‘rsatkich 189 mingdan oshdi. O‘z o‘rnida sayyohlik xizmatlari eksporti ham shunga mos ravishda o‘sgan. Xususan, o‘tgan yili 30,8 million dollari tashkil qilgan edi. Bu yilning dastlabki olti oyida salkam shu ko‘rsatkich qayd etilib, 24,8 million dollarlik

Bundan tashqari, davlat granti asosida oliy ta‘lim olishi uchun Qoraqalpog‘istonda doimiy



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“ Sayyohlik sohasiga qaratilayotgan e‘tibor tufayli oxirgi bir yarim yilda hududda 31 ta turistik firma ochildi. O‘tgan yili hududda ilk bor yulduz toifali mehmonxona tashkil etildi. Hozir besh yulduzli mehmonxona qurilmog‘da. Ellikqal‘a tumani “Sharq yulduzi” OFY hududidagi Aqchako‘l hamda Taxtako‘pir tumani “Dauqara” OFY hududidagi Qarateren ko‘li bo‘yida turizm maskanlarini ochish bo‘yicha master rejalar ishlab chiqilmog‘da.

Prezidentimizning Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun alohida qabul qilgan tarixiy ahamiyatga ega qarori yana qator yangiliklarga sabab bo‘lyapti. Masalan, hududning qadimiy, tog‘ va daryo bo‘yi hududlarida yangi sayyohlik yo‘nalishlari manzilli dastur asosida yo‘lga qo‘yilishi belgilangan. Ushbu dastur bilan Xo‘jayli tumanidagi “Mizdakxon” arxeologiya-arxitektura majmuasi, Qorao‘zak va Amudaryo tumanlari hududidagi “Shayx Jalil bobo” ziyoratgohi, Qorao‘zak va Amudaryo tumanlari hududidagi “Amu-Qaratau” dam olish majmuasi zarur infratuzilma bilan ta‘minlanadi. Mana shu ishlar uchun 25 milliard so‘m ajratiladigan bo‘ldi.

Shu bilan birga, Qoraqalpog‘ davlat universiteti, Urganch davlat universiteti hamda Fanlar akademiyasining tarixchi olimlari, tadqiqotchilari va soha mutaxassislaridan iborat tadqiqot guruhi tuziladi. Ushbu guruh yangi turizm obyektlarini ochish uchun Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatidagi tarixiy obyektlarni aniqlash va tiklash bilan shug‘ullanadi. Tadqiqot guruhining faoliyati ilmiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtiriladi. Uning samaradorligini ta‘minlash uchun esa 2025-yilda Ilm-fanni moliylashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan Qoraqalpog‘ davlat universiteti hamda Urganch davlat universitetiga 5 milliard so‘mdan ajratiladi.

“ Xalqimizni rozi qilish yo‘lidagi bunyodkorlik ishlari ortga qaytmastus olgan. Mazkur qaror va uning ijrosiga qaratilgan sa‘y-harakatlar fikrimizni tasdiqlaydi. Shunday tarixiy jarayonda muhim vazifalar ijrosini ta‘minlash har birimizdan yanada faol va tashabbuskor bo‘lishni talab qiladi.

ADOLAT, ANIQLIK VA INSONPARVARLIKKA QARATILGAN INVESTITSIYA SUD–TIBBIY EKSPERTIZADA VIRTUAL AUTOPSIYA TADQIQOTLARI JORIY ETILADI

Bugunning gapi

Adolat davlatchilikning mustahkam poydevoridir. Uni qaror toptirish esa sudlarning asosiy vazifasi. Binobarin, sudda ko‘rilayotgan ishlar ortida inson taqdiri yotadi. Bugun oramizda turli xarakterdagi insonlar uchraydi. Qaysi biridir xayrli ishlari ortidan duo olayotgan bo‘lsa, boshqa biri o‘ziga firibgarlik, tamagirlikni kasb qilib olgan. Achinarlisi, ba‘zi diyonatli insonlar tuhmat, oddiy aytganda, shantaj orqali obro‘si, yaqin kishilari, oilasidan ajralmog‘da.

Ayni paytda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanmog‘da. Firibgarlar sun‘iy intellekt texnologiyalari yordamida yaqiningiz, oila a‘zolaringiz ovoziini yuborib, pul ishlamoq‘da. Bunday holatlarda sud ekspertlari xulosasi muhim ahamiyatga ega. Sud-tergov jarayonida ish yuzasidan maxsus bilimga ega mutaxassisning fikri talab qilinganda sud ekspertiga murojaat qilinadi. Ular bergan xulosa adolatlari qaror qabul qilinishida alohida ahamiyatga ega.

Sud sohasini takomillashtirish davlatimizning daimiy e‘tiborida. So‘nggi sakkiz yilda sud-huquq sohasiga doir 70 ga yaqin qonun, farmon va qaror qabul qilingani, moddiy-texnik baza yaxshilangani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Endi islohotlarni izchil davom ettirish uchun sud-ekspertlik faoliyatini yanada rivojlantirish, sohani raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalar, shu jumladan, sun‘iy intellekt texnologiyalarini tizimga joriy etish zarur.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 8-sentabrda “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan bu borada yangi mexanizmlar belgilab berildi.

— Odil sudlov faqatgina ishonchli dalilga tayangandagina haqiqiy qiymatga ega bo‘ladi, — deydi adliya vaziri o‘rinbosari Sherzod Rabiyev. — Hujjat bilan sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish choralari belgilandi. Xususan, sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, sohada elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish, zamonaviy ilm-fan va texnika yutuqlari, sud

ekspertizasining yangi ilmiy usul va vositalarini sohaga joriy etish, nodavlat sud ekspertizasi instituti rolini yanada oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Birgina sud-tergov organlari hamda ekspertiza muassasalari o‘rtasida elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish orqali tadqiqotlar o‘tkazish muddati qisqaradi hamda yiliga 9-10 milliard so‘mni tejab qolishga erishiladi.

Shuningdek, yangi ekspertiza va tadqiqot turlarini joriy etish, tadqiqot o‘tkazish jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, sun‘iy intellekt texnologiyalari imkoniyatidan foydalanish ham nazarda tutilgan.

Tahlillarga ko‘ra, birgina 2024-yilda kiberjinoaytlar soni 2023-yildagiga nisbatan 10 barobar ortgan. Shu bois, hujjatda sun‘iy intellekt texnologiyalari orqali sodir etilgan huquqbuzarlikni qisqa muddatda fosh etish, raqamli fotosurat va videoyozuvda montaj belgilarini aniqlash va boshqa qator dolzarb ekspertiza turlarini joriy etish ham belgilandi.

Qaror bilan hududlarda o‘tkaziladigan ekspertizalar turini ko‘paytirish orqali sud ekspertizasi turlarini nomarkazlashtirish ham nazarda tutilgan. Ta‘kidlash joizki, ekspertiza muassasalarining hududiy bo‘limlarida o‘tkaziladigan ekspertiza turlarining kamligi sud-tergov organlari hamda aholining ortiqcha ovoragarchiligi sabab bo‘lmog‘da. Shunga muvofiq, kelgusida hududlarda o‘tkaziladigan ekspertiza turlarini 35 tadan 50 tagacha yetkazish belgilandi.

Endilikda sudlar, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va ma‘muriy

huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritayotgan organlar bilan elektron hujjatlar almashinuvini ta‘minlashga mo‘ljallangan “E-ekspertiza” elektron axborot tizimi sud ekspertizasi tashkilotlari faoliyatiga to‘liq tatbiq qilinadi.

— Mazkur qaror doirasida nafaqat markazimiz, balki hududiy bo‘limlarimizning ham moddiy-texnik bazasi takomillashtiriladi. Bu esa ularda o‘tkaziladigan ekspertiza turlarini yanada ko‘paytirish va bo‘limlar faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi, — deydi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi direktori Akrom Xalilov. — Xususan, markazimiz va

Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, 2026-yil 1-sentabrdan boshlab esa tuman darajasidagi ekspertiza tayinlovchi organlarda yo‘lga qo‘yiladi.

— Sud ekspertizasi muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada takomillashtirish, ularning hududiy bo‘limlarida o‘tkaziladigan ekspertiza turlarini ko‘paytirish muhim ahamiyatga ega, — deydi jinoayt ishlari bo‘yicha Shayxontohur tumani sudi sudyasi Hasan Ochilov. — Shuningdek, sud-tergov organlari va ekspertiza muassasalari o‘rtasida “E-ekspertiza” platformasi orqali hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yilishi dolzarb vazifalar sirasidan. Hujjatda



hududiy bo‘limlarimiz uchun 356 turdagi 605 ta uskuna va jihoz xarid qilinadi. Natijada markazimizdagi 9 ta laboratoriya hamda 13 ta hududiy bo‘lim zaruriy uskuna va jihozlar bilan ta‘minlanadi. Bundan tashqari, hududiy bo‘limlarda 6 ta yangi laboratoriya va qo‘shimcha ravishda 15 dan ortiq ekspertiza turlari joriy etiladi.

“E-ekspertiza” platformasi va ekspertiza tayinlovchi organlarning axborot tizimlari o‘rtasida o‘zaro elektron axborot almashinuvini 2026-yil 1-yanvardan boshlab respublika, 2026-yil 1-iyundan boshlab Qoraqalpog‘iston

belgilangan chora-tadbirlar sudyalari faoliyatiga yaqindan yordam berishi bilan ahamiyatli. Bu esa ish samaradorligini oshirish, qo‘shimcha qulayliklar yaratish, ortiqcha ovoragarchiliklarni kamaytirish, xulosalarning tezkorlik bilan taqdim etilishi orqali ishlarni o‘z muddatida va ishonchli hal etishga imkoniyat yaratadi.

Yangi tartibga muvofiq, sud ekspertizasini tayinlash to‘g‘risidagi qaror va ish materiallarini sud ekspertizasi tashkilotlariga yuborish, ularni qayd etish, ekspert xulosasini shakllantirish va ekspertiza tayinlagan organga taqdim etish hamda ekspertiza o‘tkazish jarayonidagi boshqa

hujjatlar almashinuvini “E-ekspertiza” platformasi orqali amalga oshiriladi.

2026-yil 1-iyulga qadar sud-ekspertlik faoliyatida foto, audio, videomateriallar va matn ko‘rinishidagi ma‘lumotlar, 2026-2027-yillarda boshqa ekspertiza turlari bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazishda sun‘iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish yo‘lga qo‘yiladi.

— Hujjatda ichki ishlar organlari ekspert-kriminalistika bo‘limlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 6,2 million dollardan ortiq qiymatga ega 45 turdagi yoki 1870 dona kriminalistik vositani xarid qilish belgilangani jinoaytlarni fosh etishda muhim ahamiyat kasb etadi, — deydi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi boshlig‘i Saidolim Nuritdinov. — Qolaversa, sud ekspertizasi sohasida tadqiqotlar o‘tkazuvchi mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda rivojlangan davlatlarning ilg‘or ish tajribasini chuqur o‘rganib, mamlakatimizda eksperimental sinovdan o‘tkazish orqali tatbiq etilishi zimmasizga yuklatilgan vazifalarni samarali bajarishga xizmat qiladi.

Sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari faoliyati notijorat tashkilot sifatida yo‘lga qo‘yiladi, nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari va sud-ekspertlik byurolari sud ekspertizalarning ixtiyoriy a‘zoligiga asoslangan O‘zbekiston sud ekspertlari palatasi tashkil etiladi.

Yana bir muhim jihat. Nodavlat sud ekspertlarining kasbiy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash, shuningdek, sud ekspertlarining noqonuniy harakatlari bilan bog‘liq holatlarning adolati va xolis ko‘rib chiqilishini ta‘minlash maqsadida Adliya vazirligi huzurida ekspert malaka komissiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlari tomonidan o‘tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlari kengaytiriladi.

Davlat sud ekspertizasi muassasalariga o‘z balansidagi uskunalarni haq evaziga shartnoma asosida boshqa davlat va nodavlat sud ekspertizasi tashkilotlariga ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazish uchun foydalanishga topshirish huquqi beriladi.

Qarorga binoan, sud ekspertizasi sohasida qayta tayyorlash kurslarini tamomlagan shaxslarga nodavlat sud eksperti sifatida sud ekspertizasini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikat Adliya vazirligi huzuridagi ekspert malaka komissiyasi tomonidan test sinovlari hamda suhbat shaklida o‘tkaziladigan imtihon natijalariga ko‘ra beriladi.

— Hujjatda advokatlarga ham qator muhim huquqlarni kengaytirish imkoniyati berilmog‘da, — deydi advokat Bahromjon Usmonov. — Jumladan, 2025-yil 1-noyabrdan boshlab advokatlarga ma‘muriy huquqbuzarlikka doir ishlarni yuritishda shartnomaga muvofiq advokat so‘rovi asosida ekspertiza tayinlash huquqi berilmog‘da. Bu esa advokatlik instituti nufuzini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, 2025-yil 1-dekabrda nodavlat sud ekspertlari yakka tartibda sud-ekspertlik byurosi shaklida faoliyat yuritishi mumkin bo‘ladi. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markaziga ekspertiza tadqiqotlari o‘tkazish bo‘yicha “Sud-ekspert” portali orqali onlayn murojaat qilish imkoniyati yaratiladi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab Respublika sud-ekspertiza markazi sud ekspertlari obyektlarni ko‘zdan kechirish uchun joylarga chiqqanda majburiy ravishda mobil videokamera (bodikamera)lardan foydalanish tartibi yo‘lga qo‘yiladi.

Yana bir muhim yangilik. 2026-yil 1-iyuldan sud tibbiy ekspertizasida virtual autopsiya tadqiqotlari joriy etiladi. Buni amalga oshirish uchun kompyuter tomografiyasi uskunalari xarid qilinadi va mutaxassislar xorijda malaka oshiradi.

Virtual autopsiya inson tanasini kompyuter tomografiyasi yordamida tadqiq qilish imkonini beradigan inqilobiy usul bo‘lib, u an‘anaviy invaziv tashxislash jarayoniga ehtiyojni kamaytiradi. Virtual autopsiya joriy etilishi sud ekspertizasi tizimini modernizatsiyalashtirish muhim qadam. Bu aholining adolatlga ishonchini mustahkamlash, ekspertiza jarayonlarini yanada shaffof va samarali o‘tkazish imkonini berishi bilan ahamiyatli.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, bu texnologiya qo‘llaniladigan davlatlarda ekspertiza aniqligi 20-30 foiz oshgan. Jarayon vaqti esa deyarli ikki barobar qisqargan.

Xorijlik ekspertlarning e‘tirofi etishicha, bu adolat, aniqlik va insonparvarlikka qaratilgan muhim investitsiyadir. Bunday innovatsiyalarni joriy etish nafaqat sud ekspertizasi sohasiga yuqori standartlarni joriy etadi, balki mintaqadagi boshqa mamlakatlar uchun o‘rnak ham bo‘ladi.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu qaror sud-ekspertlik faoliyati tezkorligi, sifatligi va ishonchligini ta‘minlash bilan birga aholining adolatlga ishonchini yanada mustahkamlaydi. Zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or yondashuvlar sohani xalqaro standartlar darajasiga olib chiqadi.

Lutfulla SUBONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



YANGI O‘ZBEKISTONNING SIYOSIY OHANRABOSI

DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY, DUNYOVIY DAVLAT BARPO ETISH YO‘LIDAGI ISHONCH VA BARQARORLIK STRATEGIYASI



Salim DONIYOROV,
O‘zbekiston Respublikasida
xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, ikki davlat yetakchilarining uchrashuvi samimiy va o‘zaro ishonch ruhida o‘tdi. Davlatimiz rahbari mazkur uchrashuv haqida so‘zlar ekan: **“O‘zbek xalqi aytadi va qiladi. Shunga biz ishonirdik”**, dedi. Bu so‘zlarni eshitgach, O‘zbekiston Qahramoni, xalqimizning sevikli shoiri Abdulla Oripovning quyidagi misralarini esladim:

Amerika — sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor
Beruniyning aql mash‘ali.

Ha, yurtimizdagi Uyg‘onish davrining daholaridan biri bo‘lgan Beruniy bobomiz yerning narigi tomonida quruqlik borligini birinchi bo‘lib aytgan edi. Shu orqali ilm-fanda katta o‘zgarish yasaqandi.

Bugun Uchinchi Uyg‘onish davriga asos solayotgan O‘zbekiston yetakchisi o‘zining siyosiy irodasi, so‘z va amal birligi bilan dunyo ahli e‘tiborini mamlakatimizga qaratmoqda. Markaziy Osiyoda katta kuch paydo bo‘lgani, yana bir Uyg‘onish davri boshlanayotganiga ishonirdi.

Tan olish kerak, hozirgi geosiyosiy jarayon nihoyatda murakkab tus oldi. Ertangi kunni prognoz qilish deyarli imkonsiz. Ana shunday murakkab vaziyatda AQSH kabi yirik davlat yetakchilari, ishbiarmon doira vakillari mamlakatimizga qiziqish bildirishi, kelajagini biz bilan uyg‘un ko‘rish juda katta voqeqlik.

Shu o‘rinda amerikaliklarning Prezidentimiz bilan uchrashishga ishtiyoqi haqidagi bitta voqeani eslasak. Yirik kompaniyalar yetakchilari bilan uchrashuv bo‘layotgan bir paytda muzokaralar stolidan yana bir kishi uchun joy hozirlash taraddudi boshlandi. Ma‘lum bo‘lishicha, AQSH davlat kotibi Marko Rubioning rafiqasi Janet Rubio shoshilinch ravishda Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashish uchun atay yetib kelibdi.

“

O‘tgan sakkiz yillik islohotlar sabab yangi O‘zbekiston dunyoga ochildi. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegara muammosi, o‘zaro bordi-keldidagi yopiqlik kabi talay muammolar sabab ishonchsizlik muhiti hukmron edi. Bugun esa davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasida qayd etganidek, yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi.

AQSH Prezidentining Janubiy va Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Serjio Gor mehmmoni shunday tanishtirdi: **“Ruxsat bersangiz, hozirgina kelgan juda aziz va maxsus mehmonimizni tanishtiraman. U tom ma‘noda bizning ma‘muriyat uchun go‘yoki “maxfiy qurol”dir. Chunki uning davlat ishlariga ta‘sir kuchi katta. Men unga hozir qayerda ekanini aytganimda, u men ham O‘zbekiston rahbari bilan muloqotda qatnashishim shart, deya darhol yetib keldi. Shuning uchun Janet Rubioni samimiy olqishlar bilan qarshi olsak”**.

Darhaqiqat, bunday holatlar xalqaro diplomatiyada tomonlarning o‘zaro samimiyati, hamkorlikni mustahkamlashga bo‘lgan kuchli istakni anglatadi. Tabiiyki, savol tug‘iladi: bugun xalqaro hamkorlar, amerikaliklardan tortib, yevropaliklargaacha, Arab kengliklaridan Markaziy osiyoliklargaacha yangi O‘zbekistonga intilmoqda. Bunga qaysi jihatlari sabab erishdik? Siyosiy ohanrabo maydoni qanday yaratildi?

Buning zamirida katta mehnat mahsuli bor. O‘tgan sakkiz yillik islohotlar sabab yangi O‘zbekiston dunyoga ochildi. Masalan, Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida chegara muammosi, o‘zaro bordi-keldidagi yopiqlik kabi talay muammolar sabab ishonchsizlik muhiti hukmron edi. Bugun esa davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasida qayd etganidek, yopiq chegaralar, hal etilmagan bahs va nizolar davri tarixda qoldi.

Prezidentimiz odamlarning dardini eshitis uchun xalq bilan muloqotni yo‘lga qo‘ydi. Shu orqali ularni qiynayotgan masalalarga tezkor yechim berila boshlandi. Bu tabiiyki, inson qadrini ulug‘lash siyosati shunchaki shior emas, amaliy vazifa ekanini isbotladi.

Xuddi shuningdek, xalqaro siyosatda hamkorlarni tinglash, ularga quloq tutish orqali vatani va xalqining manfaatlarini ilgari surishdek kuchli siyosiy iroda ko‘rsatdi. Yanada soddaroq qilib aytganda, teng diplomatik aloqalar, do‘stona munosabatlar o‘rnatishda boshqalarga



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



ibrat maktabi bo‘ldi. Ana shu jarayondagi samimiyat, teng imkoniyatlarga va diplomatik do‘stlikka intilish yangi O‘zbekistonning tashrif qog‘oziga, boshqacha aytganda, siyosiy ohanrabo maydoniga aylandi.

Ha, o‘tgan qisqa vaqt ichida mamlakatimiz ichkarisidan boshlangan o‘zgarishlar nafari butun mintaqaga taralib, Markaziy Osiyo ruhini yaratdi.

Shu o‘rinda yana bir faktga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqi lingvistik

tahlil qilindi. Unga ko‘ra, eng ko‘p **“maqsad” so‘zi (11 marta)** ishlatilgan. **“Global” so‘zi 8 o‘rinda** keladi. Shunga uyg‘un holatda, Markaziy Osiyoning zamonaviy jarayonlardagi roli alohida ta‘kidlangan. **“Osiyo” so‘zi 7 marta, “Markaziy” esa 6 marta** qo‘llanilgan.

Endi buni shaxsiy fikrlarimiz ila soddaroq shaklda tahlil etsak. Bugun yangi O‘zbekiston o‘z oldiga juda katta maqsadlar qo‘ygan. Ulardan eng asosiy — dunyoda diplomatik aloqalar orqali tinchlikka erishish. Tinchlik hukm surgan zaminda iqtisodiy o‘rinish kuzatiladi. Bu xalq



farovonligi, yoshlarning yetarlicha bilim olish imkoniyati degani. Shu bois, katta minbarlarda Prezidentimiz doim dunyodagi ziddiyatli vaziyatlarga to‘xtalib, diplomatik aloqalarni mustahkamlashga chaqiradi. Bu oldimizda turgan global masalalardan biri.

Ana shunday yana bir global masala ekologik muammolardir. Prezidentimiz tashabbusi bo‘lgan **“Yashil makon”** dasturi xalqaro darajaga chiqqan bejiz emas. Shu faktorlar sabab davlatimiz rahbari **“maqsad”** va **“global”** so‘zlarini ko‘p qo‘lladi. Bu kabi masalalarning hech birini O‘zbekiston yetakchisi Markaziy Osiyo mamlakatlarisiz tasavvur qila olmaydi. Nazarimda, buni ortiqcha izohlash shart emas. Chunki bugun yangi O‘zbekiston tashqi siyosatidagi katta natijalarga Markaziy Osiyoda boshlangan o‘zgarishlari sabab erishmoqda, deb o‘ylaymiz.

Yuqorida o‘zbekning aytishi va bajarishi haqidagi fikrni bejiz keltirmadik. Davlatimiz rahbari islohotlarni boshlagan ilk kunlardayoq xalqni rozi qilishni o‘zining burchi, maqsadi ekanini aytgan edi. Shu maqsad sabab boshlangan o‘zgarishlar bugun okean ortida ham bo‘y ko‘rsatdi. Shu bois, AQSH osmonida **“Welcome to USA, Prezident Shavkat Mirziyoyev”** degan qutlov hilpiradi. Bu O‘zbekiston Liderining tinchlikparvar, xalqparvar siyosatini olqishlab, butun dunyoga tarannum etayotgandek tasavvur uyg‘otdi bizda.

Ha, bugun yangi O‘zbekiston tinchlik, do‘stona diplomatiyani ilgari surayotgan, katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega mamlakat sifatida ko‘rilmog‘da. Mamlakatimizning yana bir tashrif qog‘oz bu — bilimdon, ertangi kun mas‘uliyatini to‘la his etib, olg‘a intilayotgan yoshlarimizdir. Mamlakatimiz rahbari AQSHda ta‘lim olayotgan ana shunday bir guruh yoshlar, vatandoshlar bilan uchrashishga ham vaqt ajratdi. Yuqorida aytganimiz — tig‘iz kun tartibiga qaramay, ular bilan bafurja, samimiy muloqot qildi. O‘sha uchrashuvdagi ikkita muhim fikrga to‘xtalmoqchimiz.

Birinchi, mamlakatimiz yetakchisi biz dengizdan uzoq ekanimiz, ammo yoshlar bilimi bilan ana shu masofani qisqartira olishini ta‘kidladi. Bilimdon, vatanparvar yoshlar barcha jamiyatlarning tayanch nuqtasi bo‘lgan. Mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya, ilm-fanga katta e‘tibor berilayotganining sababi ham ana shu hayotiy haqiqatni teran anglashimizni bildiradi. Tan olaylik, keyingi yillarda yoshlarimiz juda katta natijalarga erishdi. Mamlakatimizdagi oliy o‘quv yurtlari TOP-1000 talikdan o‘rin oldi. O‘qituvchilar obro‘si oshishi bilan birga malaka va ishgah ishtiyoqi ham kuchayib bormog‘da. Bunday o‘zgarish va natijalarni sanab, adog‘iga yetib bo‘lmaydi.

Ikkinchi muhim fikr esa inson mehnati orqali qadr topishi haqida edi.

AQSH safari chog‘ida ana shu hayotiy hikmat o‘z tasdig‘ini topdi. Ya‘ni O‘zbekiston yetakchisining qisqa muddatdagi katta mehnati sabab biz bilan diplomatik aloqalarni kuchaytirishga bo‘lgan ishtiyoq, hurmat sezilib turdi. Nazarimizda, davlatimiz rahbarining tig‘iz kun tartibida shijoat bilan ishlay olish siri ham aynan shunda. Ya‘ni **xalq, vatan uchun siddiqdildan xizmat qilish, shu orqali hurmatga erishish insonga bitmas-tuganmas quvvat beradi**. Yana bir jihati esa davlatimiz rahbarining o‘zi xalqimiz bilan uchrashuvlarda bot-bot takrorlaydi: **“Oddiy odamlar bilan uchrashuv, ularning yuz-ko‘zidagi mamnuniyat mamlakat yetakchisiga kuch beradi”**.



Munosabat

BMT dunyoda tinchlik va xavfsizlikni ta‘minlash, davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan eng nufuzli tuzilmadir. Unga a‘zo har bir davlat xalqaro munosabatlarning asosiy tamoyillari aks etgan va tashkilotning xalqaro shartnomalardan iborat ustavida belgilangan majburiyatlarga amal qiladi.

O‘zbekistonning BMTdagi faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. Mamlakat shunchaki a‘zo sifatida emas, balki global qarorlar qabul qilnadigan minbarlarda tashabbuskor davlat bo‘lib maydonga chiqmoqda. Masalan, 2024-2027-yillarda O‘zbekiston BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi — ECOSOC a‘zoligiga saylandi. Bu iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy rivojlanish va barqaror taraqqiyot masalalarida yurtimiz ovozi endi yanada baland yangrashini anglatadi.

O‘zbekistonning 2025-2028-yillarda Inson huquqlari qo‘mitasi a‘zosi etib saylangani xalqaro hamjamiyatning yurtimizdagi islohotlarga yuksak ishonchi sifatida baholandi. O‘z navbatida, ushbu voqea mamlakatning inson huquqlarini himoya qilish va milliy institutlarni isloh qilish borasidagi sa‘y-harakatlariga o‘zgacha shiddat bag‘ishladi.

2018-yildan 2025-yilgacha O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi tashabbuskori bo‘ldi. Ular mintaqaviy xavfsizlikdan barqaror turizm va ekologik muammolargacha bo‘lgan keng doiradagi mavzularni qamrab oladi.



Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi deputati

Bugun mamlakatimiz tashkilot maqsadlarini amalga oshirishda ishtirok etish barobarida iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishdan sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqotni rag‘batlantirishgacha bo‘lgan tegishli kun tartibini shakllantirishda ham tashabbus ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz ilgari surgan tashabbuslar tashkilotning umumbashariy maqsadlariga, jumladan, sayyoramizda tinchlik, barqarorlik va farovonlikni mustahkamlashga qaratilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga to‘liq mos keladi. Shu bilan birga, davlatimiz BMT ustavi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro shartnomalardagi maqsad va prinsiplariga sadoqat bilan zimmasidagi majburiyatlarini bajarib kelmog‘da.

Bu haqda fikr yuritganda, O‘zbekiston

misolida ko‘p yutuqlarni sanash mumkin. Bulardan birinchisi hamda tarixiyasi majburiy mehnat va bolalar mehnatiga to‘liq barham berilganidir. Shuningdek, har bir oila, fuqaroning hayotini tubdan o‘zgartirish, inson qadri va farovonligini oshirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, so‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirildi. Bunga, avvalo, ta‘lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovation tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, **“yashil” energetika** va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va minglab ish o‘rni ochish orqali erishilmoqda.

2025-yil yuksalish yo‘lidan dadil odimlayotgan xalqimiz uchun tom ma‘noda tarixiy voqealarga boy bo‘lmoqda. Bu jihatlar Prezidentimizning AQSHga amaliy tashrifi dasturi tafsilotlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanib turdi. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqi xalqimiz g‘ururini yuksaltirdi, ko‘nglimizni tog‘dek ko‘tardi.

Bu O‘zbekistonning BMT doirasidagi muhim xalqaro tashabbuslar ijodkoriga aylanib borayotganini dunyo jamoatchiligiga yana bir bor namoyon qildi. Ayniqsa, nutqda mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarga alohida to‘xtalib o‘tilgani, global va mintaqaviy kun tartibining eng dolzarb masalalari yechimiga qaratilgan qator tashabbuslar ilgari surilgani ilg‘or siyosiy hamjamiyatda katta qiziqish uyg‘otdi.

Bugun Markaziy Osiyo jadal rivojlanayotgan mintaqalardan biriga aylanmoqda. O‘zbekiston milliy manfaatlarini faol ilgari surayotgani, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlik muammolariga

“

Davlatimiz rahbarining BMT minbarida turib, mamlakatimiz nomidan taklif etilgan Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish tashabbusi ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini global miqyosda himoya qilishda muhim qadam bo‘ladi.

katta e‘tibor qaratgani holda ularning hal etilishi yuzasidan astoydil jonkuyarlik qilayotir.

Davlatimiz rahbari bugun yangi Markaziy Osiyoni shakllantirish jarayoni boshlangani, mintaqamiz hamjihatligi, barqarorligi, o‘ziga xosligi bilan xalqaro munosabatlar tizimida alohida subyekti sifatida tobora mustahkam o‘rin egallayotganini qayd etdi.

“Maqsadlarimizga erishish uchun barcha xorijiy sheriklarimiz bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni kengaytirishga asosiy e‘tibor qaratamiz. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalari bilan mintaqamizda qator yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirishni taklif etamiz”, dedi Prezidentimiz.

Xotin-qizlar masalasiga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi. Bu bejiz emas. Chunki ularning huquq va manfaatlarini to‘liq ta‘minlash, qadriyatini ulug‘lash yangi O‘zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o‘rin egallaydi. Shu bois, yurtimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, tadbirkorlik va boshqa sohalarida salohiyatini to‘la namoyon etishiga qaratilgan siyosat yuritilmoqda. Natijada bugun opa-singillarimiz davlat boshqaruvi idoralarda samarali faoliyat yuritmoqda.

Davlatimiz rahbarining BMT minbarida turib, mamlakatimiz nomidan taklif etilgan Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish tashabbusi ham xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini global miqyosda himoya qilishda muhim qadam bo‘ladi.

Puxta o‘ylangan, uzoq istiqbolga yo‘naltirilgan, ijobiy yuksalishga qaratilgan ushbu nutqni nafaqat yetakchi siyosatchilar, balki xalqaro ekspert va kuzatuvchilar ham e‘tirof etmoqda. Ushbu voqea butun xalqimiz, keng jamoatchilik qalbida ham yuksak aks sado berdi. Yetuk siyosatchilar, jamoatchilik, ziyolilar bildirayotgan fikr va munosabatlar buning isbotidir.

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasidagi chiqishi dunyo hamjamiyatiga O‘zbekistonning xalqaro kun tartibidagi asosiy masalalarga munosabatini yana bir bor namoyon etgan bo‘lsa, Prezidentimizning sammit doirasidagi ikki tomonlama uchrashuvlari va strategik kelishuvlari O‘zbekiston va AQSH munosabatlarida yangi sahifa ochdi.

Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va AQSH Prezidenti Donald Trump muzokaralari ikki tomonlama munosabatlarida

yangi davrni boshlab berishi barobarida O‘zbekiston — AQSH sherikligi rivojiga kuchli turki bo‘ldi.

Donald Trump yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro nufuzni yuksaltirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni qo‘llab-quvvatladi. Bu, o‘z navbatida, O‘zbekiston milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat yuritayotganini anglatadi.

“Boeing Global” kompaniyasi prezidenti Brenden Nelson bilan uchrashuv ham muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki 22 ta “Boeing 787 Dreamliner” samolyotini xarid qilish bo‘yicha imzolangan kelishuv O‘zbekiston aviatsiya sohasi uchun ulkan qadamdir. Zero, bitimning umumiy qiymati 8 milliard dollarga teng. Bu nafaqat “Uzbekistan Airways” flotini zamonaviylashtirish, balki mamlakatning transport logistikasida global integratsiyaga xizmat qiladi.

Umuman, Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi sessiyasidagi nutqi va AQSHga tashrif jo‘shqinligi, kun tartibi dolzarbligi va har bir uchrashuv amaliy natijalarga erishishga qaratilgani bilan e‘tiborli bo‘ldi. Ayniqsa, mazkur tashrif O‘zbekiston — AQSH munosabatlari tarixida yana bir burilish yasadi.

Yuksak minbarda turib, jahon hamjamiyati e‘tiboriga havola etilgan barcha masalalar hayotiylik, tashabbuslar o‘z vaqtida ilgari surilgani bilan ahamiyatli. Insoniyat oldidagi o‘ta muhim vazifalarni ko‘rsatib berayotgan bu takliflar butun mintaqamiz xavfsizligini ta‘minlash, xalqlarning tinch-farovon hayot kechirishiga zamin yaratadi.

TARAQQIYOT POYDEVORI — BILIM, uning asosi esa sifatli ta’lim



Dilshod ULUG‘MURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Islohotlarning ilk bosqichidayoq maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. 2017-yilda 4 mingdan ortiq mahallada birorta ham bog‘cha yo‘q edi, qamrov 27 foizdan oshmasdi. Bugungi kunda esa bog‘chalar soni 38 mingdan, qamrovi esa 78 foizdan oshdi.

Oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab ta’limi uchun ajratilayotgan mablag‘ yetti karra oshirilgani, joriy yilda 60 trillion so‘mni tashkil etgani tufayli maktablarda 1 millionga yaqin, bog‘chalarda 1,5 million yangi o‘rin yaratilgani O‘zbekiston o‘z farzandlari taqdiriga qanchalik qayg‘ urayotganini anglatadi.

Ayni paytda yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog‘cha faoliyat yuritmoqda. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlarga qamrab olingan. Keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqadi.

Umuman, o‘tgan sakkiz yilda ta’lim va ilm-fanga xarajatlar 6 karra oshirilib, 378 trillion so‘m ajratildi. Ushbu mablag‘ qayvoqqa sarflanyapti degan savolga esa joylarda qad rostlayotgan zamonaviy bog‘cha, maktab, oliygohlar misolida, ustoz hamda murabbiylar moddiy manfaatdorligi muntazam oshirib borilayotganida ko‘rinadi. Qisqasi, oxirgi yillarda ta’lim va tarbiya sohasida o‘n yillarga teng keladigan ishlar qilinib, ulkan natija hamda yutuqlarga erishilmoqda.

Maktablarimiz qiyofasi tubdan o‘zgarib, ular tom ma’noda yangi O‘zbekiston timsoliga aylanib bormoqda. Maktab mo‘jiza, kitob, ustozlar o‘tadigan har bir dars beqiyos xazina. Bugun yurtimizdagi 10 mingdan ziyod maktabda 6,5 million o‘quvchi hamda bir millionga yaqin o‘qituvchi ana shunday sharoitda o‘qib-o‘rganmoqda, samarali faoliyat yuritmoqda.

E‘TIROF BOR JOYDA YUKSALISH BO‘LADI

Insoniyat tarixining qaysi davrini olmag, jamiyat taraqqiyoti, millat yuksalishi va davlat qudrati doimo ilm-ma’rifat bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Bu ma’rifat bulog‘ining jonkuyar sohiblari esa hamisha ustozlar, muallimlar va murabbiylardir. Ular shunchaki kasb egasi emas, balki kelajak avlod tafakkuri me’morlari, millatning ma’naviy poydevorini quruvchi bunyodkor insonlardir. Shu bois, ustozga qaratilgan e’tibor, avvalo, kelajakka qaratilgan e’tibor va inson qadrini ulug‘lashning eng oliy namunasidir.

Yaqinda Prezidentimizning soha xodimlari bilan o‘tkazgan ochiq va samimiy muloqoti biz, ta’lim-tarbiya sohasi ahli uchun chinakam tarixiy voqea bo‘ldi. Bu shunchaki an’anaviy yig‘ilish emas, yangi O‘zbekistonda ta’limga, ustoz mehnatiga munosabat tubdan o‘zgarganini va bu soha davlat siyosatining eng yuqori ustuvor yo‘nalishiga aylanganini yana bir bor isbotlagan muhim muloqotdir. Tadbirlar ilgari surilgan tashabbus va imtiyozlar zamidira shunchaki moddiy rag‘bat emas, balki ulkan ma’no, chuqur yondashuv hamda kuchli siyosiy iroda mujassamligini barchamiz dildan his etib turdik.

Keling, bu yangiliklarga oliy ta’lim tizimida ko‘p yildan buyon faoliyat yuritayotgan soha vakili sifatida nazar tashlaylik. Jumladan, yangi yildan boshlab kamida 15 yillik stajiga ega oliy toifali pedagoglar uchun ipoteka kreditining boshlang‘ich badali bo‘yicha berilgan imtiyoz haqidagi xabar qalbimizni cheksiz minnatdorlikka to‘ldirdi. Bu nimani anglatadi? Bu davlat o‘z fidoyi o‘qituvchisini nafaqat ish joyida, balki hayotda ham qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanining yorqin ifodasi, uzoq yillik samarali mehnatning munosib e’tirofidir. Zero, o‘z uyiga ega, turmush tashvishlaridan xoli o‘qituvchi bor diqqat-e’tiborini, bilimi va g‘ayratini shogirdlariga bag‘ishlaydi. Bu qaror zamirida “Sizning mehnatingiz qadrlri, sizning hayotdagi o‘ringiz mustahkam bo‘lishi biz uchun muhim”, degan chuqur hurmat yotibdi.

Keyingi muhim yangilik, pedagoglarning farzandlari uchun davlat oliygohlarida kontrakt summasiga 30 foizli chegirima joriy etilishidir.



Rustam NORLIYEV,
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Bu tashabbus nafaqat bir o‘qituvchini, balki uning butun oilasi va kelajak avlodini qo‘llab-quvvatlashdek ezuq maqsadga xizmat qiladi. Butun umrini o‘zgalar farzandiga bilim berishga bag‘ishlagan ustozning o‘z zurriyodi oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun yaratilayotgan bu imkoniyat insonparvarlikning yuksak namunasidir. Bu bilan jamiyatda o‘qituvchilar sulolalari, ziyovilar qatlami yanada mustahkamlanadi.

Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan, ta’lim texnologiyalari har kuni yangilanayotgan bir paytda

muallim bu jarayondan ortda qolmasligi shart. Kompyuter xaridi uchun 10 million so‘mgacha imtiyozli kredit ajratilishi o‘qituvchining qo‘liga zamonaviy qurol berish bilan barobar. Bu orqali u nafaqat darslarini qiziqarli va mazmunli o‘tkazadi, balki jahon axborot resurslaridan bahramand bo‘lib, malakasini muntazam oshirib boradi. Dunyoning TOP-300 oliygohlarida tahsil olish uchun 20 ming dollargacha imtiyozli ta’lim krediti berilishi esa biz, pedagoglar oldiga yanada ulkan marralar qo‘ymoqda.

Ta’lim sifati, avvalo, poydevordan — boshlang‘ich ta’limdan boshlanadi. Endilikda fan o‘qituvchilari kabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga ham milliy sertifikat berish tizimi joriy etilishi va sertifikat olganlarga 15 foiz ustama to‘lanishi ta’lim tizimining eng muhim bo‘g‘iniga qaratilgan jiddiy e’tibordir.

Shuningdek, bakalavr bosqichini imtiyozli diplom bilan tugatib, maktabga ishga kirgan yoshlarga ikkinchi, magistrarga esa birinchi malaka toifasi avtomatik tarzda berilishi bilimni yosh kadrlarga ko‘rsatilayotgan yuksak ishonchini bildiradi.

E’tirof bor joyda yuksalish bo‘ladi. Reytingda yuqori o‘rinlarni egallagan ta’lim muassasalari pedagoglari uchun O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilishga transport chiptalariga chegirmalar berilishi ham ramziy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu muvaffaqiyat qadrlanishi va sog‘lom raqobat muhiti yaratilishi demakdir. Qolaversa, o‘z yurtini kezzgan, uning tarixi, madaniyati va bugunidan bahramand bo‘lgan o‘qituvchining ma’naviy dunyosi boyiydi, shogirdlariga beradigan saboqlari yanada hayotiy va mazmunli bo‘ladi.

Bu tashabbuslar tarqoq imtiyozlar yig‘indisi emas. Puxta o‘ylangan, bir-birini to‘ldiradigan, uzoq istiqbolga mo‘ljallangan yaxlit dastur, yangi O‘zbekiston ta’lim islohotlarining yangi bosqichi. Bularning barchasi zamirida inson qadrini ulug‘lash, ilm-fan va zakovatning jamiyatdagi o‘rni beqiyos yuksaltirishga qaratilgan kuchli siyosiy iroda yotibdi. Bugun o‘qituvchi bo‘lish nafaqat sharaflari, balki tobora nufuzli va ijtimoiy jihatdan mustahkam kasbga aylanmoqda. Biz, ustozlar, bunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlikdan ruhlanib, bor bilim va tajribamizni, qalb qo‘rimizni vatanimiz ravnaqi va buyuk kelajak egalari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdek muqaddas ishga safarbar etishga bel bog‘laganmiz. Zero, ustoz qadr topgan yurtda ilm rivojlanadi, ilm bor joyda esa taraqqiyot va farovonlik hukm suradi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Ayni paytda yurtimizda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog‘cha faoliyat yuritmoqda. Olti yoshli bolalarning 96 foizi maktabga tayyorlov guruhlarga qamrab olingan. Keyingi yili bu raqam 100 foizga chiqadi.

“

bog‘chalarni ta’mirlash orqali hamda xususiy sektor ishtirokida barpo qilinadi.

Yangi o‘quv yilidan o‘rta maxsus ma’lumotli tarbiyachilar uchun besh kun

ishlab, bir kun o‘qiydigan bakalavr ta’lim shakli joriy qilinadi. Bu tizim orqali bog‘chalarga har yili qariyb 10 ming oliy ma’lumotli mutaxassis kirib keladi. Kelasi yili har bir viloyatda bog‘cha tarbiyachilarining pedagogik mahoratini oshirishga metodik ko‘maklashuvchi “Yangi avlod” bog‘chalari faoliyat boshlaydi.

Keyingi yil O‘zbekistonda ilk bor maktab o‘quvchilari o‘rtasida nufuzli xalqaro kimyo va informatika olimpiadalarini o‘tkaziladi. Shuningdek, kelgusi o‘quv yilidan yuqori sinflarga sun’iy intellekt bo‘yicha darslar kiritiladi. Buning uchun 2 mingta sinf xonasi kompyuter va interaktiv doskalar bilan ta’minlanadi. Iqtidorli yoshlarga sharoit yaratish uchun viloyatlarda axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan Al-Xorazmiy, muhandislik bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek, tabiiy fanlar yo‘nalishida Ibn Sino maktablari filiallari tashkil etiladi.

Yangi O‘zbekistonda eng muhim soha — ta’lim, eng hurmatli insonlar — o‘qituvchi va murabbiylardir.

Chindan ham oxirgi yillardagi ishlar tufayli ta’lim-tarbiya islohotlarimizning ustuvor yo‘nalishiga, soha vakillari esa eng hurmatdagi kasb egalariга aylanmoqda. Vaholanki, yaqin-yaqin-gacha soha qatorida ustozlar faoliyati ham nazardan chetda qolayotgandi. Bugungi o‘zgarishlar, rejalar va tashabbuslarni ko‘rib esa amin bo‘lyapmizki, hali bu boradagi ishlar yana izchil davom etiriladi.

Davlatimiz rahbarining Bo’stonlik tumanida o‘qituvchi va murabbiylar bilan qilgan muloqoti chog‘ida bildirilgan fikrlar buni yana bir karra isbotladi. Xususan, yangi yildan boshlab kamida 15-yil stajiga ega bo‘lgan oliy toifali pedagoglarga ipoteka krediti boshlang‘ich bdalining 25 foizi davlat tomonidan qoplab beriladi. Agar kelgusi yili pedagoglar farzandlari davlat oliygohlariga to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga kirs, kontrakt summasiga 30 foiz chegirima joriy qilinadi.

Bundan tashqari, boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarga ham milliy sertifikat berish tizimi joriy qilinadi va uni olganlarga har oyda 15 foiz ustama to‘lanadi. Bakalavr bosqichini imtiyozli diplom bilan bitirib, maktabga ishga kirganlarga avtomatik ravishda 2-malaka toifasi, magistrnlarga esa 1-malaka toifasi beriladi.

Dunyodagi TOP-300 talik oliygohlarga o‘qishga kirgan pedagoglarga 20 ming dollargacha imtiyozli ta’lim krediti ajratiladi. Reytingda 100 talikka kirgan maktab va bog‘cha, 20 talikdagi texnikum, TOP-10 ta oliygoh pedagoglariga yiliga bir marta O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish uchun samolyot va poyezdlar chipta narxlariga 15-20 foiz chegirima beriladi. Qisqasi, uchrashuvda o‘qituvchilar uchun bu kabi yangilik va qulayliklar ko‘p aytiladi. Nafaqat aytiladi, ular ijrosini ta’minlashga kirishildi. Bundan ustoz va murabbiylar juda mamnun bo‘ldi va ular bunga haqli. Negaki bugun o‘qituvchilar maqomi bo‘lakcha. Alohida e’tibor va e’tirofga loyiq kasb egalari ular. Endi avvalgidek har turli hasharu mayda ishlarga ommaviy jalb etiladigan soha vakillari emas. Hozir o‘quvchiyu o‘qituvchi o‘quv yili boshlanishi bilanoq paxta dalasiga olib chiqilmayapti. Aksincha, ularning munosib o‘qish va o‘qitishi uchun kerakli sharoit yaratib berishga harakat qilinaypti.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida “So‘nggi yillarda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasini 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirishga erishdik. Bunga, avvalo, ta’lim va ilm-fan sohasini o‘zgartirish, innovatsion tarmoqlar va texnologik sanoat korxonalarini barpo etish, “yashil” energetika va transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, kichik biznesni har tomonlama rivojlantirish va natijada millionlab ish o‘rinlari yaratish orqali erishmoqdamiz... Eng asosiysi — o‘qituvchi va ustozlik kasbining obro‘si va nufuzini keskin oshirishga hal qiluvchi masala sifatida qaramoqdamiz”, deya ta’kidladi.

Ilm eng zo‘r martaba degan gap bor. Chindan ham qayerda ilmu ma’rifat kuchli bo‘lsa, o’sha yer baxt maskaniga, bilim odamlari bunyodkor kuchga aylanadi. Yangi O‘zbekistonning bugungi siyosati ana shu farovonlikni ko‘zlagan. Bu ilm-fan, texnologiya jadal rivojlanib borayotgan sharoitda eng to‘g‘ri yo‘ldir. Taraqqiyot asosi bo‘lgan bilim esa har qachon va har yerda zarur.

medal bilan tamomlagani va aksariyati muddatidan oldin talaba bo‘lgani, albatta, jamoamizning katta yutug‘idir.

Qorako‘l akademik litseyi mamlakatimiz ta’lim sohasida o‘z o‘rniga ega. O‘quv maskanidagi tartib-intizom, fanlarga tayyorlanish va hatto madaniy-ma’rifiy tadbirlarda o‘ziga xoslik bor. Bu yerda yoshlar vaqti to‘g‘ri, aniq va samarali taqsimlangan. Natijada ular qo‘lga kiritayotgan yutuqlar tobora ko‘payib bormoqda.

Joriy yilda litseyning barcha 201 bitiruvchisi oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirdi. 191 nafari davlat granti 10 nafari to‘lov-kontrakt asosida. Oxirgi 3 yilda o‘quvchilar orasidan 10 nafar yigit-qiz xalqaro, 25 nafari respublika fan olimpiadalariga g‘olib va sovrindori bo‘ldi. 3 o‘quvchi esa davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Litseyda ustoz-shogird an’analari namunali yo‘lga qo‘yilgan. Olimpiadaga qatnashishni istagan o‘quvchilar bilan haftada ikki marta qo‘shimcha mashg‘ulot o‘tkaziladi. Vaqti-vaqti bilan o‘tkazib turiladigan litsey olimpiadasiga alohida e’tibor qaratiladi. Olimpiadachi o‘quvchilar bilan ishlash esa mustahkam bilim, tajriba va mas’uliyat bilan yondashuvni talab etadi. O‘qituvchi-hakamlarning biror o‘quvchiga yon bosishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Toki barcha o‘quvchi bir-birini tan olib, rozi bo‘lgunicha olimpiada qayta-qayta o‘tkazilaveradi. Shundagina oqilchisiga “aqd jangi” bo‘ladi va g‘oliblikka ishtiyok ortadi.

Mazkur o‘quv maskanida “Adolat har ishta hamrohimiz va dasturimiz bo‘lsin!” degan hikmatga qat’iy amal qilinadi. Litseydagi shaffollikka hech kim e’tiroz bildirmaydi. O‘quvchilarni qabul qilishda tanish-bilishchilikka yo‘l qo‘yilmaydi. Asosiy vazifa o‘quvchilarni talabalik baxtiga erishtirish va bu yumush uddalanyapti ham.

Hozirga qadar litseyning 3114 bitiruvchisi respublika, 56 nafari esa xorij oliygohlarida tahsil olgan va olmoqda. Litsey jamoasida ilmiy maqola yozib va darsliklar yaratib, O‘zbekiston ta’limini rivojlantirishga hissa qo‘shayotgan ustozlar ham bor. Qorako‘l akademik litseyi ana shu jihatlari bilan namuna bo‘lmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Yurtimizda ta’lim tizimidagi islohotlar bugun haqiqiy samarasini ko‘rsatmoqda. Ilgari oddiy o‘quv dargohlari bo‘lgan ko‘plab maktablar hozir andoza sifatida ko‘rsatilayotgan ta’lim maskanlariga aylandi.

MAORIF QASRI

So‘nggi 3 yilda barcha bitiruvchilari nufuzli oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilinib, 100 foizi talaba bo‘lgan akademik litsey haqida bilarmidingiz? Bu O‘zbekiston Respublikasi xalq o‘qituvchisi To‘xtamurod Jumayev tomonidan asos solingan va o‘z natijalari bilan ko‘pchilikni hayratlantirgan Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyidir.

1991-yilda yosh matematiklar va fiziklar maktabi sifatida faoliyat boshlagan bilim muassasasi vaqt o‘tib, ta’lim-tarbiyadagi o‘ziga xos uslubi bilan dong taratdi. 2009-yildan boshlab Buxoro davlat universiteti Qorako‘l akademik litseyi maqomini oldi.

To‘xtamurod Jumayev shaxsi va mehnatiga Prezidentimiz tomonidan “Bugungi kunimizning haqiqiy ma’rifatparvari, davrimizning Avloniyosi,

Behbudiy domlasi, Munavvarqorisi...”, deya munosib ta’rif berilgan va u ta’lim-tarbiya sohasida erishgan ulkan muvaffaqiyatlari va ibratli faoliyati bois “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan.

— Ustozning ishlari davomchisi, ta’lim-tarbiyada tutgan usullarini ko‘rgan, pand-nasihatlarini eshitgan shogirdman, — deydi Qorako‘l akademik litseyi direktori G‘olibjon Jamuqulov. — Bugungi kungacha mamlakat bo‘yicha o‘tkazilgan fan olimpiadalarida 54 ta imtiyozli diplomga sazovor bo‘ldik. 2018-2025-yillarda o‘quvchilarimiz tomonidan xalqaro fan olimpiadalarida 1 ta oltin, 7 ta kumush, 6 ta bronza, jami 14 ta medal qo‘lga kiritildi. Joriy yilgi bitiruvchilarimizning 44 nafari o‘qishni oltin, 16 nafari kumush

**“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Munojat MO‘MINOVA
tayyorladi.**



“O'tkan kunlar” romanining 100-yilligi

O'TGAN KUNLAR O'TDI,
“O'TKAN KUNLAR” QOLDI

Millatni birlashtiruvchi omil va vositalar ko'p emas. Bu tarixiy haqiqatni o'tgan yillar va o'tayotgan kunlar isbotlab turibdi. O'zbek romanchilik maktabi asoschisi, ulug' yozuvchi Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romani o'zbek xalqini birlashtira olgan ana

shunday barmoq bilan sanarli omillardan biri. Joriy yilda mazkur shoh asar yaratilganiga roppa-rosa 100 yil to'ldi. Shubhasiz, bu sana nainki o'zbek adabiyoti, balki o'zbek xalqi tarixida muhim ahamiyatga ega.

Atoqli yozuvchi Xayriddin Sulton bunday yozadi:

“Abdulla Qodiriy o'zbek xalqining milliy mustaqilligi uchun jonini fido etgan ulug' ajdodimizdir. Ehtimol, o'zbek ziyolilari ichida hech bir zot istiqloq kunlarini, istiqloq saodatini bu mumtoz siymo singari zoriqib kutmagan bo'lsa kerak...”

Mustamlakachi to'ralarga, istiqloq dushmanlariga, zolim mahalliy qyonlarga qarshi Qodiriy yuragida hamisha nafrat dengizi to'qlinlanib yotardi...”. Mana shu dard Qodiriy qo'liga qalam tutqazib, o'zbek adabiyoti tarixida badiiy jihatdan yetuk eng birinchi romanni yozishga undadi. “Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlik”, deya “moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi “xon zamonlari”dan hikoya qiluvchi bu romandan dastlabki parchalar 1922-yilda “Inqilob” to'plamida e'lon qilingan edi. Uch qismdan iborat roman 1925-yilda kitob shaklida chop etildi. Romanda muallif o'zbek xalqining XIX asr birinchi yarmidagi hayotini tasvirlaydi. Birinchi bo'limda bosh qahramon Otabek marg'ilonlik bir guruh savdogar bilan uchrashadi. Uning suhbatii tabiiy ravishda oila mavzusiga borib taqaladi. Asarning aynan mana shu joyida Otabekning o'z davri uchun qat'iy qarashlarga tamoman zid tasavvurga ega ekani guvohi bo'lamiz. Uning fikricha, oila er va xotinning muhabbati va bir-biriga hurmati asosida barpo etilishi, bu ishda “ota-ona orzusi” deb atalmish zararli odatga barham berilishi lozim. Har bir er o'z xotinini cho'ri deb emas, mustaqil shaxs, yaqin do'st va mahabb deb bilishi kerak. Ana shunda odam baxtiyor bo'ladi. Demak, odamning baxti to'kisligi — oila.

Zamonamizning ulug' ulamlaridan biri “O'tkan kunlar”ni har yili bir marta o'qib chiqishini aytgan edi. Shundan o'rnak olgan holda, bu asarni yilda bir marta baholi qudrat o'qiyman. Shu kunlarda “O'tkan kunlar”ni to'rtinchi bor o'qib tugatdim. Birinchi gal yoshlik tufaylimi, haytovur, ishq qissasini yengil o'qigan va oson hazm qilgan ekanman. Romanning ikkinchi mutolaasida yozuvchining muddaosini bir oz anglagandek bo'ldim.

“O'tkan kunlar” bamosoli qiyom. Meva qaynatilib-qaynatilib, qiyomga aylangani kabi bu asar bir asr mobaynida qiyomiga yetgan. Uni o'qigan kishi takror mutolaa qilishni istaydi. Har gal yangi mazmun kashf etaveradi, yangi taassurot topaveradi.

Bir asarda jamiyatdagi ming turli illatu yomonliklarni fosh etib, o'quvchiga toshoyna tutish imkonini bortligiga ham “O'tkan kunlar” dalolatdir. Birgina Homidning Otabek va qutidorni zindonga tushirish uchun qilgan jirkanch harakatlarini olsak. Mansabdorlikni xalq ishonchini oqlash emas, balki pul topmoq vositasi deb bilganlar, poradan hazar qilmaslar hamma zamonlarda bo'lgan.

Abdulla Qodiriyning bu asari tom ma'nodagi o'zbek fe'l-atvori ko'rsatilgan asar deb baholanishi va yuksak qadrlanishi bejiz emas. Ayniqsa, ikkinchi bo'limdagi “Ota-ona orzusi” bobida o'zbek oilasi qanday bo'lmog'i to'la-to'kis aksini topgan. Mana o'sha jumlarlar:

“Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor:

xotin bilangina emas, umuman, uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsin, uzoq so'zlashib o'tlurmaydur. Otabekmi, onasini, Hasanalimi, ishqilib, uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar, maqsad aytib bitkandan so'ng sekingina ko'tarilib, uning yuziga qaraydirlar. Hoji bir necha vaqt so'zlag'uchining o'z og'zig'a tikiltirib o'tlurg'andan so'ng agar ma'qul tushsa, “Xo'b”, deydir, gapka tushummagan bo'lsa, “Xo'sh”, deydir, noma'qul bo'lsa “Durust emas”, deydir va juda ham o'ziga noma'qul gap bo'lsa, bir iljayib qo'yish bilan kifoyalaniib, mundan boshqa so'z aytmaydir va aytisa ham uch-to'rt kalimadan nariga oshmaydir”.

Zamonamizda Yusufbek hojidek oz va soz so'g'lovchi, bir so'zini qat'iy o'tkazuvchi erlar bormi-yo'qmi, bor bo'lsa qancha, bilmayman.

Abdulla Qodiriyning bu asari tom ma'nodagi o'zbek fe'l-atvori ko'rsatilgan asar deb baholanishi va yuksak qadrlanishi bejiz emas. Ayniqsa, ikkinchi bo'limdagi “Ota-ona orzusi” bobida o'zbek oilasi qanday bo'lmog'i to'la-to'kis aksini topgan.

Abdulla Qodiriy ijodini katta mehr va yuksak ixlos bilan o'rgangan adib Odil Yoqubov bunday xotirlaydi: “O'sib-ulg'ayib, kitobga tashnaligim, ishqim, mehr-muhabbatim o'sib borgan sari “Abdulla Qodiriy”, “O'tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” degan gaplar qulog'imga tez-tez chalindigan bo'ldi... 1943-yilning oxirgi oylari, to'qqizinchi sifda o'qib yurgan chog'larim... Kunlardan birida o'qituvchining ukasi, sinfdosh do'stim meni chetga tortib: “Kecha akam “O'tkan kunlar”ni topib keldi”, deb qoldi. Darsdan keyin “O'tkan kunlar”ni bir kechaga so'rab olish umidida sinfdosh og'aynim bilan birga ularnikiga bordim...”

— Domlajon, bir kechaga berib turing. Ertalab olib kelib beraman. Hech kimga aytmayman...

— Xo'p, mayli, ammo o'zing ham, deymen... bir yopishsang, qo'ymas ekansan-da!

O'sha kecha mijja qoqmadim. Tong payti oxirgi sahifani o'qib bo'ldim. Kitobni yopib, boqqa chiqdim.

Men yuzimni shabadaga tutib, bog'da uzoq aylanaman. Ko'z yoshlarimni artmay, ho'ng-ho'ng yig'layman... O'sha mahalgacha hech bir kitob meni shu qadar larzaga solmagan edi...”

Atoqli shoirimiz Erkin Vohidovdan iqtibos keltirib aytsek, bizda Abdulla Qodiriychalik juda mashhur va nihoyatda ko'p o'qilgan yozuvchi bo'lmagan. Ijodkorning yaxshi kitoblari hamisha yostiq vazifasini bajargan. “O'tkan kunlar” abadiyatining siri va Abdulla Qodiriy ijodiy muvaffaqiyatining omili ham shunda.



Qodiriy qatag'on qilinib, “xalq dushmani” sifatida qoralangan, asarlari taqiqlangan vaqt ham odamlar “O'tkan kunlar”ni sandiqlarda saqlashdan, sandallar atrofiga o'tirib, o'qishdan to'xtamadi. Taqiy ularni to'xtata olmadi.

Yaqin moziydan bir misol. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, noshir, tarjimon, ma'rifatparvar tadbirkor Jo'ra qori Bo'tako'z yaqinda 99 yoshida vafot etdi...

U Andijonda dunyoga kelgan. Afg'oniston, Pokiston, Iordaniya, Misr, AQSH va boshqa

bo'lardi degan tuyg'u menda kuchaya bordi. Chunki domla Zakibeyning asari ham turkcha edi.

Men kelajakda yurtimizning ozod bo'lishi yo'lidagi mujdodalada o'z tusimiz bilan, mavjudiyatimiz bilan tursak, tabarruk harakatlarda ishtirok etish sharafiga noil bo'lib qolarmiz degan umidda edim.

Yuqoridagi orzularimni ro'yobga chiqarish uchun Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini qayta chop ettirib, tarqatishni afzal ko'rdim...”

Shu bois, Jo'ra qori Bo'tako'z xorijdagi vatandoshlarining o'zbeklikdan ayro yashashini xohlamagan. Bu yo'ldagi harakatini 1961-yilda fidoyi insonlarning zahmati mujassam. Bu borada esa ularga asarning shirali tiliga bo'lgan muhabbat kuch bergan.

“O'tkan kunlar” romanining mashhurligi va bir asr silsilasidan omon o'tishida mana shunday fidoyi insonlarning zahmati mujassam. Bu borada esa ularga asarning shirali tiliga bo'lgan muhabbat kuch bergan.

“O'tkan kunlar”ning to'rtinchi mutolaasida diqqatimni tortgan jihat asar boshi va oxirida juda katta ramz mavjudligi bo'ldi.

“1264-hijriya, daly oyining o'ni yettinchisi, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladi...”.

Abdulla Qodiriy shu bir jumla orqali elu

mamlakatlarda yashadi, yurt kezdi, dunyo ko'rdi. Biroq ona Vatan sog'inchi har laha yuragining eng to'rida saqlanib turdi. Vatandoshimiz 1958-yilda Turkiyadagi mehmonxonasini sotib, Pokistonning Karachi shahriga boradi va Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini o'z hisobidan minglab adadda chop ettiradi va dunyoda “tarqab yotgan to'qson olti” urug' — o'zbeklarga beminnat, beg'araz yetkazadi. Uning muridini o'qing:

“O'zbeklar turmushidan olingan “O'tkan kunlar” romanini Zakibey Validiyning “Turkiston tarixi” asari bilan birga o'qib, ko'p hayajonlandim. “O'tkan kunlar” kitobida so'zlar xalqona bo'lib, ko'rinishlar milliy edi. Milliy tuyg'u, milliy ruhda yozilgani ko'rinish turardi.

O'sha davrda Afg'onistondagi o'zbeklar afg'onlasha bordi. Hindistondagi o'zbeklar o'zaro urducha, panjobiycha gaplashadigan bo'lib ketmoqda edi. O'shalarga o'shab Turkiya yashayotgan vatandoshlar ham o'zbekligini unutib, turkcha gaplashadigan bo'lib qoldi. Qizig'i shundaki, uyalmay-netmay turkcha gaplasha turib, millatchilikdan da'vo qilishadi. O'zlarini millatchi deb bilishadi-yu, millatchi deb tanilishni istaydilar-u, madaniy jihatdan yo'qola borayotganlarini sezmaydilar.

O'sha kunlari domla Zakibeyning “Turkiston tarixi”ni o'qib, vatandoshlar hech bo'lmaganda yurtimiz ozod bo'lgunicha o'z milliy tilimizni yo'qotmay, o'zbek tilimizni begona ta'sirlardan saqlab, mumtoz adabiyotimizni, musiqamizni, ayniqsa, maqom yo'llarini fahmlab tursa, yaxshi

bilan to'qunishmamizda birinchi safmizni shu ikki yigit oldi va qahramonona urushib shahid bo'ldi. Men o'z qo'lim bilan ikkisini dafn etdim...”.

Yusufbek hoji xatmi Qur'on qilib, yurtka osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib, ta'ziya ochdi”.

Mana, o'zagi “o'zbek” degan ismli ayol qora kiyib, ta'ziya ochmoqda. Axir tarix guvohlik berib turibdi: ko'p o'tmay, Turkiston parchalanib, ziyolilar qatag'oni boshlangani rost-ku. Birgina 1938-yilning 4-16-oktabr kunlari o'zbekistonlik 507 siyosiy mahbus ustidan hukm o'qildi. Eng yetakchi shaxslar, millat oydinlari qatl etildi. Ular orasida Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'rlon, Xudoybergan Devonov kabi yetuk ziyolilar, Germaniyada o'qib kelgan ilg'or mutaxassislar, tanikli davlat va jamoat arboblari, afsuski, Abdulla Qodiriy ham bo'lgan.

“O'tkan kunlar” romanidagi yanada hayratlanarli jihat — Otabek va Kumushdan yodgor qolgan farzandning o'g'illari taqdiri. Otabekning o'g'li Yodgorbek XX asrning “o'n to'qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida” vafot etgan. Yusufbek hojidek Toshkent beklaridan birining, Mirzakarim qutidordek Marg'ilon boylaridan birining nabirasi ochlik tufayli o'lmoqda. Endi oddiy turmush kechirgan odamning holatini tasavvur qilib ko'ring. Yodgorbekning ikki o'g'li bo'lib, biri Marg'ilonning mas'ul ishchilari, ya'ni sho'ro xizmatchisiga aylanadi, ikkinchisi esa Farg'ona

“O'tkan kunlar” romanining ayrim boblari 1922-1924-yillarda “Inqilob” jurnalida bosilgani haqida aytdik. Masalan, “Otabek Yusufbek hoji o'g'li”, “Xon qizig'a loyiq bir yigit”, “Bek oshiq”, “Kiroyi kuyayving shundog' bo'lsa”, “Majburiyat”, “Chaqimchilik” kabi boblar shular jumlasidan. Mazkur boblarning muqaddimasi, jumladan, “Inqilob” jurnalining 1923-yildagi 9-10-sonlarida “Toshkand, 1920-yil”, deya sana qo'yilgan. Demak, asar yaxlit kitob holida dunyo yuzini ko'rishidan besh yil oldin yozila boshlagan. Yana shunga ham e'tibor berish kerakki, bu kabi yirik nasriy asar “xamirturush”i bo'lgan voqealar bayoni va g'oya muallifga 1917-1918-yillarda, ya'ni Abdulla Qodiriyning yigirma uch-yigirma to'rt yoshidan tinchlik bermaganini taxmin qilish mumkin. Zotan, muvaffaqiyatli har bir yaxshi asar uzoq vaqt izlanish talab qiladi.

Asarning jurnalda bosilgan boblari nomlanmay, faqat raqamlangan. Kitob holidagi roman boblarining esa har biriga alohida-alohida sarlavha qo'yilgan. Demak, birinchi qism o'z-o'zidan to'kis asar holiga kelgan emas.

“Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman. Biror joy to'g'risida asar yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni necha martaba ko'rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman”, deb yozgan edi Abdulla Qodiriy 1935-yili “Qizil O'zbekiston” gazetasida bosilgan “Yozuvchi o'z ishi to'g'risida” maqolasida.

Yozuvchining o'g'li Habibulla Qodiriy esa bunday xotirlaydi:

“Men Marg'ilon ko'chalarida yurib, karvonsaroy, eski o'rda o'rnlarni belgiladim. Mirzakarim quidior, Usta Alim, Homid va Sodiqning uylarini taxminladim va “Xo'ja maoz”da bir kecha tunadim, — derdilar dadam ba'zan hushlari kelganida, bizning roman haqidagi mayda-chuyda ezma savollarimizga javob berib. — “Xo'ja maoz”da yolg'iz tunadim. Masjid ayyonida uzoq o'tirdim. Hammayoq qorong'i, odam degan gap yo'q... Bora-bora uyqu bosdi. Uxlab olmoqchi bo'ldim. Biroq yotib, ko'z yuma olmadim. Chunki tunovchilar kelinganim, masjidida qandala ko'p ekan, chaqaverib bezor qildi. Hovliga tushub yotay desam, turli hasharotlardan xavf qilardim... Nihoyat tobutxonaga kirib yotdim...”.

Abdulla Qodiriy xalqimizni yangi davrning Tohir va Zuhrafi, Farhod va Shirini bilan tanishtirish uchun o'zini mas'ul deb bildi, buning majburiyatini his qildi hamda murosaga erishdi. “O'tkan kunlar” romanining bosh qahramonlari Otabek va Kumush el aro mashhur bo'ldi, “Layli va Majnun”, “Bahrom va Dilorom” kabi bu ishq qissasi ham shuhrat topdi.

Odamlar yangi tug'ilgan chaqaloqlarga mehr va havas ila Otabek, Kumush deya ism qo'ydi. Oradan yuz yil o'tgan bo'lsa-da, million-million beshiklarda Otabeklarning, Kumushlarning, o'z navbatida, Abdullalarning yangi avlodi kamol topmoqda.

Otabek ISROILOV,
jurnalist

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-1046.

34751 nusxada bosilgan.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turok ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Akbar Qarshiye
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy